QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i10.081

O‘ZBEK DOSTONCHILIGI TARQQIYOTIDA MAMATQUL JO‘RAEVNING TUTGAN O‘RNI

Munis Jo‘rayeva
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti,
Folklor bo‘limi katta ilmiy xodimi,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
munis.jurayeva80@mail.ru, Orcıd: 0009000462319858

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mamatqul Jo‘rayevning o‘zbek xalq dostonlarini o‘rganishga doir ilmiy qarashlari va tadqiqot tamoyillari tahlil qilinadi. Olimning dostonlarni tarixiy-genetik hamda qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganish usullari, epik syujet va motivlarning mifologik asoslarini aniqlashga doir qarashlari, shuningdek, o‘zbek dostonlarini boshqa xalqlar epik an’analari bilan qiyosiy o‘rganish tajribasi yaxlit ilmiy tizim doirasida ko‘rib chiqiladi. Shu orqali Mamatqul Jo‘rayev tadqiqotlarining o‘zbek dostonshunosligi taraqqiyotidagi o‘rni va ilmiy ahamiyatini belgilash maqsad qilinadi.

Kalit so‘zlar: doston, folklor, eposshunoslik, Mamatqul Jo‘rayev, motiv, obraz, dostonchilik maktabi.

Аннотация. В статье анализируются научные взгляды и исследовательские принципы Маматкул Жураева, связанные с изучением узбекских народных дастанов. В рамках целостной научной системы рассматриваются методы историко-генетического и сравнительно-типологического исследования дастанов, взгляды ученого на выявление мифологических основ эпических сюжетов и мотивов, а также опыт сравнительного изучения узбекских дастанов в контексте эпических традиций других народов. На этой основе ставится цель определить место и научное значение исследований Маматкул Жураева в развитии узбекского дастановедения.

Ключевые слова: дастан, фольклор, эпосоведение, Маматкул Жураев, мотив, образ, школа дастанного искусства.

Abstract. This article analyzes the scholarly views and research principles of Mamatqul Jo‘rayev concerning the study of Uzbek folk dastans. Within an integrated scholarly framework, it examines the methods of historical-genetic and comparative-typological analysis of dastans, the scholar’s approaches to identifying the mythological foundations of epic plots and motifs, as well as his experience in comparatively studying Uzbek dastans in the context of the epic traditions of other peoples. Accordingly, the study aims to determine

the place and scholarly significance of Mamatqul Jo‘rayev’s research in the development of Uzbek dastan studies.

Keywords: dastan, folklore, epic studies, Mamatqul Jo‘rayev, motif, image, dastan performance school.

Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodining xilma-xil janrlari, o‘ziga xos etnomadaniyati va boy adabiy merosi bilan Sharq badiiy madaniyati taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan o‘zbek xalqi Markaziy Osiyo hududida qadimdan shakllangan va yaxlit tizim sifatida qaror topgan epik ijrochilik san’ati an’analarining noyob namunalaridan birini yaratgan. Mazkur milliy-madaniy qadriyat asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib, o‘zining an’anaviy ijro shakllarini saqlagan holda bugungi kunga qadar yetib kelgan.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining yirik epik janrlaridan biri bo‘lgan dostonlar xalqning uzoq asrlik tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, estetik tafakkuri, ma’naviy qadriyatlari va etnomadaniy xotirasini o‘zida mujassam etgan noyob folklor yodgorliklaridir. Ularda xalqning tarixiy voqelikni badiiy idrok etishi, qadimiy mifologik tasavvurlari, marosimiy qarashlari, urf-odat va an’analari, qahramonlik va ezgulik haqidagi tasavvurlari epik obrazlar, syujetlar hamda motivlar orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli dostonlarni ilmiy o‘rganish nafaqat folklor matnining badiiy xususiyatlarini aniqlash, balki uning shakllanishi, tarixiy ildizlari, boshqa xalqlar epik an’analari bilan aloqalari va unda saqlanib qolgan qadimiy tasavvurlarni yoritish, tadqiq etish imkonini beradi. O‘zbek eposshunosligi taraqqiyotida xalq dostonlarining janr xususiyatlari, syujet va motivlari, obrazlar tizimi, poetik qurilishi, baxshichilik an’analari hamda tarixiy-madaniy asoslarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan. Keyingi bosqichlarda esa dostonlarni tadqiq etishda tarixiy-genetik, qiyosiy-tipologik, mifologik-semantik va kompleks yondashuvlarning qo‘llanilishi ularning mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq ochib berish imkonini yaratdi. Ayniqsa, epik asarlarni xalqning qadimiy dunyoqarashi, marosimlari va mifologik tasavvurlari bilan uzviy aloqada tadqiq etish doston badiiyatining etarlicha izohlanmagan ba’zi bir jihatlarini aniqlashga xizmat qilgan. Ana shunday ilmiy izlanishlar tizimida Mamatqul Jo‘rayevning tadqiqotlarining alohida o‘rni bor. Olim o‘zbek folklorining turli janrlarini, xususan, xalq dostonlarini tarixiy-genetik, qiyosiy-tipologik va mifologik yondashuvlar asosida o‘rganib, epik matnlarning shakllanishi va badiiy-semantik qatlamlarini xalqning qadimiy tasavvurlari hamda an’anaviy madaniyati bilan bog‘liq holda talqin etishga e’tibor qaratgan. Uning tadqiqotlarida doston syujeti va motivlarining kelib chiqishi, epik an’analarning tarixiy ildizlari, turli xalqlar folkloridagi mushtarak va o‘ziga xos jihatlar hamda mifologik qarashlarning epik tafakkurda qayta badiiylashuvi kabi qator masalalar o‘zaro aloqadorlikda yoritiladi.

Mamatqul Jo‘rayev mardlik va qahramonlikni kuylovchi baxshilarimizning boqiy bo‘stonidagi durdona asarlar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub dostonlardan ayrimlarini to‘plam etishdek xayrli ishda qatnashib, unga so‘zboshi yozdi. Olim bu to‘plamga kiritilgan xatirchilik Egamberdi Ollomurod o‘g‘lining “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” va zominlik Yorlaqab Beknazar o‘g‘lining “Malika Ayyor”

dostonlari ilk bor chop ettirilayotganligi, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ijro etgan “Malika Ayyor” dostoni to‘ldirib, qayta nashrga tayyorlanganligini ta’kidlagan.

Olim dostonlar bo‘yicha izlanishlari davomida “Sohibqiron” dostoni syujetining epik talqinlari”[1: 110-117], “Shirin bilan Shakar” dostoni syujetining tarixiy asoslariga alohida e’tibor qaratganini kuzatish mumkin[2:141-147]. Yana olim tomonidan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining “Ra’no bilan Suxangul” dostoni ustida ham kuzatishlar olib borilgan[3: 61-67]. Bunda olim Bulung‘ur dostonchilik maktabining atoqli namoyandasi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li epik repertuaridagi “Ra’no bilan Suxangul” dostonining o‘ziga xosligi va badiiy xususiyatlari, syujet tizimidagi an’anaviy motivlar genezisi haqida fikr yuritgan. Olim ustoz folklorshunos Hodi Zarif kabi ushbu dostonning Fozil shoir repertuariga kirib, singib ketishi klassik adabiyot ta’siri natijasi deb biladi[4: 13]. Mamatqul Jo‘rayev fikricha, atoqli dostonchining epik repertuari shakllanishida muhim rol o‘ynagan qissaxonlik davralarida shoir Dilafkor qalamiga mansub “Ra’no va Suxangul” dostoni, shuningdek, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” qissa-dostonining turli namunalari bilan tanishishi ushbu doston yaratilishiga olib kelgan. Mazkur doston “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligining 5-jildiga kiritilgan[5: 117-400].

Olim tomonidan dostonda uchraydigan o‘zbek xalq ertaklarining syujet qurilishiga mansub an’anaviy motiv va obrazlar, jumladan, g‘ayritabiiy tug‘ilish, ovga chiqish va qahramonning kiyik ortidan quvib g‘aroyib joyga borib qolishi motivlari, sirli qo‘rg‘on, dev, pari, kiyik obrazlari, pari va devlarning kaptar ko‘rinishida uchib kelishi tasviri tahlilga tortilgan.

Olimning yana shunday maqolalaridan biri “Shahriyor” dostoni syujetining o‘ziga xos talqinlariga bag‘ishlangan[6: 156-159]. Olim bu maqolasida xalq orasida keng tarqalgan “Shahriyor” dostonining o‘ziga xos xususiyatlari va mifologik asoslari, mazkur syujetning xorazmlik baxshilar epik repertuarida qayd etilgan og‘zaki variantining badiiyati xususida so‘z yuritgan. Aynan shu maqolada “Qorako‘z oyim” va “Shahriyor” dostonlarida qo‘llanilgan mifik obraz va mifopoetik detallar orqali, birinchidan, ushbu epik asarlarning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan syujetning g‘oyat qadimiyligini ochishga, ikkinchidan, xalqimizning ertakchilik an’analari, ayniqsa, sehrli-fantastik ertaklarga singib ketgan asotiriy qatlam xalk eposiga kuchli ta’sir ko‘rsatganligini dalillashga qaratilganligi alohida e’tiborni tortadi.

Mamatqul Jo‘rayev o‘zbek xalq dostoni “Tohir va Zuhra”ni nashrga tayyorlashda ham xizmat qilgan[7: 208]. Bu dostonni 1983-yilda shahrisabzlik baxshi Zohir shoir Qo‘chqor o‘g‘lidan Sharofjon Orifiy yozib olgan. Uni M.Jo‘rayev hamda F.Mamatqulova o‘rganib, birgalikda “Xalq qalbidan joy olgan doston” sarlavhali maqola yozganlar. Bu maqola so‘zboshi sifatida doston nashr qilinishi mo‘ljallangan kitobga kiritilgan. Ular tomonidan nashr uchun izohlar va lug‘at ham tayyorlangan. So‘zboshi maqolada dastlab Zohir shoir Qo‘chqor o‘g‘li haqida, u kuylagan “Tohir va Zuhra” xalq dostonining varianti xususida, dehqonlarning xirmon ko‘tarish jarayonida “Tohir qilish” udumi, Tohir va Zuhra nomi bilan bog‘liq ziyoratgohlarning ramziyligi to‘g‘risida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Shu bilan bir qatorda Mamatqul Jo‘rayev “Tohir va Zuhra” dostonida qo‘llangan “Tortar” (tatar) so‘ziga diqqat qaratib, ushbu dostonning o‘zbek va qrim-tatar versiyalarini o‘zaro qiyoslagan[8: 150-157].

Xalq orasida keng tarqalgan “Yozi bilan Zebo” dostoni variantlarining o‘ziga xos xususiyatlari, uning shakllanish tarixi va an’anaviy motivlarining genetik asoslari tahlili va tadqiqi ham olim e’tiborini tortgan[9: 59-62]. Bu jihatdan olim “Yozi bilan Zebo” dostonining shakllanishi tarixini, yozigo‘ylik an’anasi va uning folklor ijrochiligida tutgan o‘rnini[10: 11-13] maxsus nazardan o‘tkazgan. O‘zbek folklorida keng tarqalgan “Yozi bilan Zebo” dostonining yozib olinishi va o‘rganilishi tarixi, bu doston qo‘shiqlarining ijro etilish xususiyatlari va tarqalish arealiga ham e’tibor qaratib, uning an’anaviy syujeti XVIII-XIX asrlarda kechgan tarixiy-folkloriy jarayon natijasida shakllanganligini ta’kidlab o‘tgan.

Mamatqul Jo‘rayev faqat xalq dostonlari emas, balki adabiy dostonlarning mifopoetik jihatlarini o‘rganishga ham ayricha diqqat qaratib, o‘z shogirdlari M.Narziqulova, G.Hamroyevalar bilan birgalikda tadqiqotlar amalga oshirgan. Masalan, JDPI magistranti Gulchehra Hamroyeva bilan “Semurg‘” dostonida mifopoetik obraz talqiniga e’tibor qaratganlar[11: 40-43].

Shuningdek, olimning yana bir maqolasida atoqli o‘zbek shoiri Abdulla Oripov she’riyatidagi mifopoetik obrazlar talqiniga e’tibor qaratilganini ko‘rish mumkin[12].

Olimning bu borada asosiy diqqat qaratgan masalalaridan biri Sak-Maccaget eposi va uning o‘zbek folkloridagi epik talqinlarini ochishga qaratilgan bo‘lib, u bu haqda avval yurtimiz, keyin xorijda o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda goh o‘zi, goh shogirdi T.Qo‘chqorov bilan dolzarb maqolalar e’lon qildi[13: 23-26]. Ulardan “Сако-Массагетский эпос и проблеми исследования эпических сюжетов в узбекском фолклоре”, “Отголоски сако-массагетского эпоса в узбекском народном дастане “Горогли”, “Рассказ Геродота об аримаспах и мифологические представления узбеков о циклопе”, “Художественние трактовки сюжетов сак-массагетовского эпоса в узбекском фолклоре” kabilarni bunga dalil qilib ko‘rsatish mumkin. Ustoz va shogirdning shunday maqolalaridan biri o‘zbek folklorida “bir ko‘zli” mifologik mavjudot obrazi va uning genezisi tadqiqiga bag‘ishlangan[14: 630-637]. Ularning fikricha, “asrimasplar”, ya’ni “bir ko‘zli odamlar” to‘g‘risidagi qadimiy mifologik tasavvurlar O‘rta Osiyo turkiy xalqlari, shu jumladan, o‘zbek folkloriga ularning qadimgi ajdodlari – sak-massaget qabilalari epik ijodining evolutsiyasi natijasida o‘tgan.

Mamatqul Jo‘rayevning folklorshunos Nasim Ochilov bilan birgalikda tayyorlangan “Tarkibadaxshon” dostoni va uning “Go‘ro‘g‘li” eposi o‘zbek versiyasida tutgan o‘rni” mavzusidagi maqolada[15: 89-93] Chori baxshi Umirov repertuaridan yozib olingan “Tarkibadaxshon” dostoni “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub dostonlar tarkibida mustaqil syujet va kompozitsion tugal epik asar namunasi sifatida alohida ajralib turishi qayd etib o‘tilgan.

Olimning shogirdi N.Bobojonova bilan hamkorlikda tayyorlangan “Yusuf va Zulayho” dostoni syujetining o‘zbek folkloridagi poetik talqinlari” mavzusidagi maqolasida[16: 208-215] ushbu dostonning turli xil og‘zaki va yozma talqinlarida mavjud bo‘lgan bo‘ri obraziga daxldor epik motivlarning kelib chiqish tarixi, bu jonivorni totem-ajdod sifatida e’tirof etishga daxldor mifologik tasavvurlar xususida so‘z yuritilgan. Bo‘ri haqidagi totemistik qarashlar turkiy qavmlar tarixining oltoy davridayoq geneologik miflar silsilasidan mustahkam o‘rin olganligi, bu jonivorni mo‘tabarlashtirishga asoslangan totemistik kult izlari Markaziy Osiyo

xalqlari folklorida o‘z ifodasini topganligi dalillangan. Totemistik tasavvurlarning mifologik talqinining tarixiy-tadrijiy rivoji natijasida esa ajdod kultining zoomorf timsollari haqidagi miflar va bu jonivor inonchiga topinuvchi urug‘ning kelib chiqishi to‘g‘risidagi etnonimik afsonalar yuzaga kelganligi qayd qilingan. Bo‘ri haqidagi qadimgi totemistik mif syujetining ko‘p asrlik badiiy evolutsiyasi davomida bo‘ri kulti bilan aloqador motivlar hamda bo‘ri obrazining folklor asarlaridagi turli xil badiiy talqinlari, shuningdek, genetik asoslari qadimgi totemistik mifologiyaga borib taqaluvchi epik syujetlar shakllanganligi ta’kidlab o‘tilgan. Shuningdek, dostondagi bo‘ri obrazining an’anaviy tush motivi tarkibida xabarchi ramz vazifasida kelishi hamda Ya’qubning bo‘rilar bilan uchrashishi lavhasining tarixiy asoslari ham arxaik mifologiya elementlarining epos tarkibiga singib ketishi jarayoni mahsuli ekani e’tirof etilgan. Niyozjon xalfa bisotida saqlanib qolgan “Yusuf va Zulayho” dostonida Yusuf tashlangan quduqning ta’rifi va qahramonning quduq tubiga tushishi bilan bog‘liq tafsilotlar uchramasligi aniqlangan. “Turkiy Yusuf-Zulayho”da esa bu quduq oddiy choh emas, balki “qadimul ayyomda Shaddoddan qolgan” yoki “Shaddod qazdirgan”, “ichida ilon-chayon ko‘p” bo‘lgan mifologik makon sifatida talqin qilinishi, mazkur epik syujetning o‘zbek adabiyoti va folkloridagi badiiy evolutsiyasida muhim rol o‘ynagan “Qisasi Yusuf Siddiq alayhissalom”da bayon etilishicha, Yusuf tashlangan quduqni Nuh payg‘ambarning o‘g‘li Som qazigan bo‘lib, nomi “Hubbul-axyor”, ya’ni “Ezgulik qudug‘i” ekani haqida dalillar keltirilgan. Shular asosida Yusuf va Zulayho haqidagi epik syujetning og‘zaki va yozma adabiyotdagi badiiy talqinlarida qahramonning o‘gay akalari tomonidan hasad oqibatida quduqqa tashlanishi motivi deyarli bir xil tasvirlangan bo‘lsa-da, xalqimiz orasida “Turkiy Yusuf-Zulayho” nomi bilan keng tarqalgan qissada bu syujet elementi qadimiy mifologik tasavvurlar hamda folklor an’analarini to‘la saqlab kelganligi bilan alohida ajralib turishi, shu mavzudagi xalq qissalari va dostonlarning syujet qurilishi va asosiy motivlar tizimi deyarli bir xil bo‘lgani holda, qahramonning quduqqa tashlanishi motivi asarning barcha variant va versiyalarida turlicha tasvirlangani, bu motivning tarixiy-genetik asoslari qadimgi mif qahramonlarining uch qismli kosmik model, ya’ni Ko‘k, yuqori olam, Yer yuzi va Yer osti, ya’ni quyi olam bo‘ylab safari bayon etilgan arxaik syujetga borib taqalishi bo‘yicha xulosalar ilgari surilgan.

Mamatqul Jo‘rayevning “Oltin qoboq” dostonining tarixiy asoslariga doir kuzatishlari ham maqola sifatida e’lon qilingan[17: 54-60]. Bu maqolada Sherobod dostonchilik maktabi epik an’anasida keng tarqalgan “Oltin qoboq” dostoni syujetining shakllanish tarixi, mazkur dostonning O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivida saqlanayotgan variantlari xususida fikr yuritilgan. Dostonning o‘zbek variantlari va uning “Go‘ro‘g‘li” turkumida tutgan o‘rnini qiyosiy tahlil qilish natijasida baxshilarning individual badiiy mahorati va badihago‘ylik san’ati aniqlangan. “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub ushbu doston syujetining shakllanishi xalq orasida keng ommalashgan “oltin qoboq” nomli an’anaviy o‘yin bilan bog‘liqligi asoslab berilgan. Olimning xulosasiga ko‘ra, “Oltin qoboq” dostoni janubiy O‘zbekiston dostonchiligining o‘ziga xos jihatlarini aks ettirgan Sherobod dostonchilik maktabining epik an’anasida shakllangan va baxshilar tomonidan turli variantlar holida kuylab kelingan an’anaviy o‘zbek romanik eposlaridan biri hisoblanadi. Bu asarning yuzaga kelishi

“Go‘ro‘g‘li” eposi tizimidagi “Avazxon” nasliy turkumining shakllanishi bilan bevosita bog‘liq jarayondir. Bunga doston markazida Avazxon obrazi va uning sarguzashtlariga oid epik voqealar tafsiloti asos bo‘la oladi. Xalqimiz orasida qadimdan urf bo‘lib kelgan marosimiy rituallardan biri – “oltin qoboq” otish o‘yini ham mazkur doston syujetining shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Haj safariga ketishdan avval Chambil hukmronligini qabul qila oladigan munosib nomzodni aniqlash maqsadida Go‘ro‘g‘i tomonidan “oltin qoboq” o‘yinining tashkil etilishi va bu bahsda Avazxonning g‘olib bo‘lishi asarda tugunning yuzaga kelishiga zamin hozirlagan bo‘lib, baxshilar bu lavhani xalq o‘yinlarini kuzatish asosida epos syujetiga kiritganlar va uni xalqona ohangda real aks ettirganlar. Dostonning barcha variantlarida “oltin qoboq” otish o‘yini garchi epik shart sifatida talqin qilinsa-da, o‘zining hayotiy asoslarini to‘la saqlagan holda tasvirlangan.

Mamatqul Jo‘rayev “Kuntug‘mish” dostoni yuzasidan bosh qahramonlar – Xolbeka bilan Kuntug‘mishni teriga solib ot dumiga torttirish – qadimgi dafn marosimlari bilan bog‘liq motiv ekanligi, Kuntug‘mishning ajdaho bilan jangi, Gurkiboy va Mohiboy timsolida egizaklar kultining ifodalanishi, ularni bo‘ri va baliqning olib qochishi, yurtga podsho saylash uchun Davlat qushining uchirilishi motivlarining mifologik asoslari haqidagi fikrlarini bildirib o‘tgan.

Yorlaqab Beknazar o‘g‘lidan yozib olingan “Choryor” dostoni tahliliga bag‘ishlangan maqolasida ushbu doston syujetining tarixiy asoslari, epik motivlarning o‘ziga xosligi va baxshi poetik mahoratiga munosabatini bildirib o‘tgan.

Umuman aytganda, professor M.Jo‘rayevning ilmiy faoliyatida baxshichilik san’atiga, uning xalq madaniyati rivojida tutgan o‘rniga qiziqishi ham baland bo‘lgan[18: 128].

Demak, professor Mamatqul Jo‘rayevning dostonshunos sifatidagi faoliyatini beshga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. O‘zbek xalq dostonlarini yozib olish.
2. Yozib olingan o‘zbek xalq dostonlarini nashrga tayyorlash va chop ettirish.
3. O‘zbek xalq dostonlari syujet asoslarini ilmiy tadqiq qilish.
4. O‘zbek xalq dostonlarini boshqa xalqlar eposi bilan qiyosiy o‘rganish.
5. Baxshilar faoliyatini o‘rganish.

Baxshichilikning jahonshumul san’at ekanini e’tirof etish va bundan faxrlanish har bir folklorshunosga xos xususiyat. Buni Mamatqul Jo‘rayev faoliyati ham yorqin namoyon etib turadi. U o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etilgan kitob-albomning tuzuvchi-mualliflaridan biri edi[19].

Folklorshunos olim bir necha mashhur o‘zbek xalq eposlari asosida maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan doston kitoblarini ham nashrga tayyorlab, chop ettirishda faollik ko‘rsatgan[20]. Jumladan, “Go‘ro‘g‘li” dostonlari tukumiga kiruvchi “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Malika ayyor”, “Shohdorxon” dostonlarini bunga misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Olim o‘zbek xalq dostonlari shuhratini jahonga yoyish bo‘yicha ham ancha-muncha xayrli ishlarni amalga oshirgan edi. Shu maqsadda uning Turkiyada chop etiladigan folklorshunoslikka oid nufuzli “Milliy folklor” jurnalida koreyalik shogirdi doktor Ingyong On bilan hammuallifligidagi “Türk kahramanlik destanlarinda şaman etkisi ve kore destan

geleneğinin anlaşilmasi için bir giriş” nomli maqolasi bosilib chiqqanligini eslash o‘rinlidir[21:5-15]. Bundan tashqari, olim shogirdi T.Qo‘chqorov bilan ham qator maqolalar e’lon qilingani yuqorida eslab o‘tilgan edi. Yana bu o‘rinda ularning “Oğuz-nâme’de mitolojik motifler”[22:49-60] maqolasini ham eslash mumkin.

Mamatqul Jo‘rayev xorijiy mamlakatlarda o‘tkazilgan ilmiy anjumanlarda o‘zbek xalq qahramonlik eposi “Alpomish” dostonining jahon xalqlari ma’naviy-madaniy taraqqiyotida tutgan munosib o‘rnini ko‘rsatib bergan hamda nomoddiy madaniy merosni saqlash va muhofaza etish borasida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar bilan dunyo ilmiy jamoatchiligini tanishtirish borasida ham samarali xizmat qilgan.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan masalalar asosida filologiya fanlari doktori, professor, folklorshunoslik darg‘alaridan bo‘lgan Mamatqul Jo‘rayevni dostonshunos sifatida ham e’tirof etish lozim. Olimning dostonshunoslikdagi ilmiy faoliyati muayyan dostonlarni alohida tadqiq etish bilangina cheklanmay, epik syujetlarning tarixiy-genetik ildizlarini aniqlash, mifologik qatlamlarini ochish, versiya va variantlarni qiyoslash, turli xalqlar epik an’analaridagi mushtarak va o‘ziga xos jihatlarni belgilash hamda doston matnlarini ilmiy nashrga tayyorlashni qamrab olgan yaxlit tadqiqot tizimini tashkil etadi. Uning bu boradagi ilmiy merosi qimmatli manba sifatida keyingi tadqiqotlarga yo‘l ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жўраев М. “Соҳибқирон” достони сюжетининг эпик талқинлари // Вестник ККФ АН РУз. – Нукус, 2017. – №4. – Б.110-117.
2. “Ширин билан Шакар” достони сюжетининг тарихий асосларига доир / Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг ахборотномаси. – Нукус. – 2017. – № 4 (37). – Б.141-147.
3. Фозил Йўлдош ўғлининг “Раъно билан Сухангул” достони ҳақида баъзи мулоҳазалар / Илм сарчашмалари. – Урганч: Урганч давлат университетининг илмий-методик журнали. – 2018. – №1. – Б.61-67.
4. Зарифов Н. Фозил шоир – машҳур достончи // Фозил шоир / Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 3-китоб. – Тошкент, 1973. – Б.13.
5. Фозил Йўлдош ўғли. “Раъно билан Сухангул” достони // Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. 5-жилд. Ширин билан Шакар (достонлар). Нашрга тайёрловчилар: М.Шайхзода, М.Жўраев, М.Жўраева, З.Йўлдошева. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б.177-400.
6. “Шаҳриёр” достони сюжетининг ўзига хос эпик талқинлари // Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг ахборотномаси. – Нукус, 2019. – №2 (43). – Б.156-159.
7. Тоҳир ва Зуҳра: Ўзбек халқ достони / Айтувчи: Зоҳир шоир Қўчқор ўғли, ёзиб олувчи: Ш.Орифий. Нашрга тайёрловчилар: М.Жўраев, Ф.Маматқулова. – Тошкент: “Муҳаррир”. 2011. – 208 б.
8. Жураев М. Сравнителный анализ узбекского и крымско-татарского версий дастана “Тахир и Зухра” / Башкирский язык в образователном пространстве Республики

Башкортостан и субъектов Российской Федерации: Сборник материалов VI Всероссийской (с Международным участием) научно-практической конференции, посвященной 80-летию со дня рождения ученого-методиста Р.Г.Азнагулова. – Уфа: РИЦ БашГУ, 2021. – С.150-157 (hamk.).

9. Жўраев М. “Ёзи билан Зебо” достони ўзбек вариантларининг ўзига хос хусусиятлари. Тафаккур зиёси. Илмий-услубий журнал (Жиззах давлат педагогика институти илмий ахороти). – 2019. – №1. – Б.59-62.

10. Ёзигўйлик анъанаси ва унинг эпик ижодиётда тутган ўрни / Жаҳон цивилизациясида бахшичилик санъатининг ўрни: Халқаро илмий-амалий конференция тезислар тўплами. – Тошкент, 2019. – Б.11-13.

11. Жўраев М., Ҳамроева Г. “Семурғ” достонида мифопоэтик образ талқини. / Филологиянинг умумназарий масалалари. Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: VNESIHSTROV, 2020. – Б.40-43.

12. Жўраев М. Абдулла Орипов шеъриятида мифопоэтик образлар talqini / “Абдулла Орипов феномени ва ўзбек шеърияти taraqqиёти” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Қарши, 2021.

13. Жўраев М. Сак-Маccaret эпоси ва унинг ўзбек фолклоридаги эпик talqинлари / “Китобхонлик маданиятини юксалтириш: Муаммо ва ечимлар” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари. – Навоий, 2020. – Б.23-26.

14. Жўраев М., Қўчқоров Т. Ўзбек фольклорида “бир кўзли” мифологик мавжудот образи ва унинг генезиси / Адабиётшуносликнинг долзарб масалалари. – Тошкент, 2020. – Б.630-637.

15. Жўраев М., Очилов Н. “Таркибадахшон” достони ва унинг “Гўрўғли” эпоси ўзбек версиясида тутган ўрни // Ilm ham jamiyat. – Nukus, 2020. – №2. – Б.89-93.

16. Жўраев М., Бобожонова Н. “Юсуф ва Зулайҳо” достони сюжетининг ўзбек фольклоридаги поэтик талқинлари / Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – 2020. – 10-сон. – Б.208-215.

17. Жўраев М. “Олтин қобоқ” достонининг тарихий асосларига доир // Таълим ва инновацион тадқиқотлар (халқаро журнал). – Бухоро, 2021. – №1. – Б.70-78; Жўраев М. “Олтин қобоқ” достонининг тарихий асосларига доир / Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Бухоро. – 2020 йил. – №1. – Б.54-60.

18. Жаҳон цивилизациясида бахшичилик санъатининг ўрни / Места искусства бахши в мировой цивилизации. / The place of Bakhshi art in world civilization. – Тошкент: Baktriya press, 2019. – 128 б.

19. Жаҳон цивилизациясида бахшичилик санъатининг ўрни: Халқаро илмий-амалий конференция тезислар тўплами (Термиз шаҳри, 2019 йил, 5-10 апрел). Тузувчилар: М.Жўраев, А.Ҳайдаров, Ж.Эшонқулов, Q.Амонқулов. – Тошкент, 2019. – 128 б.; Ўзбекистон бахшилари / Бахши Узбекистана / Bakshi of Uzbekistan (ўзбек, рус ва инглиз тилларида китоб-албом). Тузувчи-муаллифлар: А.Найдаров, М.Жўраев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019.

20. Эзгуликни куйловчи достон // “Гўрўғли” достонлари / “Мактаб кутубхонаси” сериясидан. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи: М.Жўраев). – Тошкент: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – Б.3-6; Жўраев М., Турдимов Ш. Эгамберди Олломурод ўғли. “Гўрўғлининг туғилиши” достони // “Гўрўғли” достонлари / “Мактаб кутубхонаси” сериясидан. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи: М.Жўраев). – Тошкент: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – Б.7-83; Фозил Йўлдош ўg‘ли. “Малика айёр” достони (тўлдириб, нашрга тайёрловчи) / “Гўрўғли” достонлари / “Мактаб кутубхонаси” сериясидан. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи: М.Жўраев). – Тошкент: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – Б.151-371; Усмон Маматқул ўғли. “Шоҳдорхон” достони (qayta nashrga tayyorlovchi; Z.Rasulova bilan hamk.) / “Гўрўғли” достонлари / “Мактаб кутубхонаси” сериясидан. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи: М.Жўраев). – Тошкент: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – Б.372-442; “Гўрўғли” достонлари / “Мактаб кутубхонаси” сериясидан. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи: М.Жўраев). – Тошкент: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 448 б.

21. Prof. Dr. Eunkyung OH, Prof. Dr. Mamatkul Jo‘rayev. Türk kahramanlik destanlarinda şaman etkisi ve kore destan geleneğinin anlaşilmasi için bir giriş. / Influence of Shamanism in Turkic Heroic Legend and Introduction for Korean Epic Tradition. – Millî Folklor, 2017, Yıl 29, Sayı 114. – P. 5-15.

22. Jo‘rayev M., Kuchqorov T. Oğuz-nâme’de mitolojik motifler / Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Sosyal Bilimler Dergisi Journal of Social Sciences Sayı / Number 58, Haziran / June 2017, 49-60.